

Shahar va tumanlarda arzonlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari tashkil etilishi holati muhokama qilindi



Shahar va tumanlarda arzonlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari tashkil etilishi holati muhokama qilindi

Bugun, 22 noyabr kuni viloyat hokimligida videoselektor tarzida navbatdagi Hokimlik soati yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda viloyat hokimi o'rinbosarlari, hokimlik apparati mas'ul xodimlari, shahar, tumanlar hokimlari, sektorlar, aloqador boshqarma va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda viloyat hokimi topshirig'iga asosan ishchi guruh tomonidan Termiz shahar va tumanlar Markaziy dehqon bozorlarida yarmarkalarning tashkil etilishi hamda kuz-qish mavsumiga oziq-ovqat zahirasini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar holatini o'rganish natijasi muhokama qilindi.

Mazkur yo'nalishlarda shahar va tumanlarda mavjud muammolarni hal etish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berilib, tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

